

Nurbadalova Bo‘ritosh Begali qizi

Mumtoz she’rlarimiz qofiya asosiga qurilar ekan, juda ko‘p hollarda qofiyaning radif bilan qo‘llanilishi kuzatilgan. Radif “izma-iz” keladigan ma’nosini ifodalab, adabiyotshunoslikda qofiyadan so‘ng kelib, aynan takrorlanuvchi so‘z birikmasini anglatadi. Radiflar she’rda ifodalanayotgan asosiy g‘oyani ta’kidlash, o‘quvchi e’tiborini badiiy asarda ifodalanilishi lozim bo‘lgan asosiy g‘oyaga jalb etib, ijodkor g‘oya va maqsadlarini kitobxonga yanada ravshanroq yetkazib berishga xizmat qiladi.

Ridflarning joylashish o‘rniga e’tibor qaratsak, ular ikki yoki undan ortiq holda kelishi mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda shunday baytlar borki, ular faqat qofiya va radifdangina iborat bo‘lganlari ham uchraydi.

Adabiyotshunoslikda radif qo‘llangan g‘azallar muraddaf g‘azal nomi bilan yuritiladi.

Atoulloh Husayniy radifning qo‘llanishi zarurat emasligi, qo‘llangan radif she’rda boshdan oyoq takrorlanishi, she’r mohiyati va vazniga tushishi kerakligi, radifiga ega qofiyali bayt muqaffoyil muraddaf deb nomlanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlarini taqdim qiladi. Nosiriddin Tusiy “Me’yor ul-ash’or”da arab va fors adabiyotidagi nazariy qarashlarni qiyosiy o‘rganadi.

Qofiya ilmi tadqiqiga bag‘ishlangan qismida arab adabiyoti va fors adabiyotidagi tafovutlarni birma-bir ko‘rsatib beradi. Tusiy dastlab radifning paydo bo‘lish tadrijiga e’tibor qaratadi. Olim Shams Qays Roziy singari radif arab adabiyotida emas, fors adabiyotida paydo bo‘lganiga ishora qiladi. Keyinchalik arab shoirlari forslardagi bu unsurni o‘zlashtirib, she’rlarida qo‘llay boshlaganlarini ta’kidlaydi. Olim asarning “Dar huruf va harakoti qavofi nazdiki porsigo‘yon va zikri radif” qismida raviydan keyingi har qanday takrorlanuvchi harfni radif sifatida baholaydi. “Va chun ma’nii radif go‘shan shud, ma’lum shud, ki on chi ba’d az ravy va vasl oyad, agar yak harf boshad va agar ziyodat, jumla

az hisobi radif buvad” . Ayni o‘rinda olim vasl va radifning farqlari xususida to‘xtaladi. Dastlab raviydan keyingi harflarni radif ekanligini ta’kidlagan olim, raviydan keyin keluvchi vasl harfini qofiya bilan uzviy bog‘liqligini, qofiya tarkibida bir so‘z holida bo‘lishini ta’kidlaydi. Vasl harfi shu xususiyati bilan radifdan farq qilishini aytadi. Nosiriddin Tusiy radifning o‘rni va takror kelishi uning qat’iy xususiyatlaridan biri ekanligiga alohida urg‘u beradi. Radif takror kelishi shart, she’r tarjima qilinganidagina radif tushib qolishini kechirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Hojib (ar.) – pardador, berkituvchi. Mumtoz she’r unsurlaridan biri. She’riy misralarda qofiyadan oldin aynan takrorlanib keluvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi. Hojib qo‘llangan she’r mahjub deb ataladi. Mumtoz poetikaga doir manbalarda hojibning bir ma’noda qo‘llanilishi zaruriy shartlardan hisoblangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida radifli va radifsiz g‘azallar miqdori deyarli teng. Iste’dodli ijodkor har ikkala usulda ham birdek betakror na’munalar yarata olish mumkinligini g‘azallari misolida ko‘rsatib bera olgan. Umumiyl son jihatidan radifli g‘azallar 60ta, radifsiz g‘azallar esa 59tani tashkil qiladi.

Muraddaf qofiyali g‘azallarda ta’kid va murojaat ma’nosи kuchliroq bo‘lib, bu g‘azalning badiiy qimmatini oshirgan. Odatda radiflar bir so‘zdan iborat bo‘ladi. Ammo 2 -3 so‘zdan iborat radiflar ham ko‘p uchraydi.

Ko ‘ngulga bo ‘ldi ajoyib balo qaro soching,

Shikasta ko ‘ngluma ermish balo qaro soching.

baytida radif bir so‘zdan iborat bo‘lsa

Ko ‘zumda muttasil ul egma qosh kerak bo ‘lsa,

Qoshimda ko ‘z yorug ‘u ul quyosh kerak bo ‘lsa.

baytida radif ikki so‘zdan iborat.

Shohi Sulton Uvays ban Mahmud.

Mohi Sulton Uvays ban Mahmud.

Qaddi og ‘zingdan ayru tortarmen,

Ohi Sulton Uvays ban Mahmud

deb boshlanuvchi g‘azalida radif 4ta so‘zdan iborat.

Radif g‘azallarga o‘zgacha ohang va musiqiylik beradi. Asarning o‘qishliligini ta’minlaydi.

Radiflar she’rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni ta’kidlash, o‘quvchi e’tiborini asosiy g‘oyaga jalb etib shoir g‘oyaviy niyatini o‘quvchiga yaxshiroq yetkazib beruvchi vositalardan hisoblanadi.

Masalan, Boburning

Kim ko ‘ribdur, ey ko ‘ngul, ahli jahondan yaxshilig ‘,

Kimki andin yaxshi yo ‘q, ko ‘z tutma andin yaxshilig ‘

Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq,

Ko ‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig ‘!

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko ‘ngluma,

Kelmadi jonimg ‘a hech oromi jondin yaxshilig ‘.

deb boshlanuvchi g‘azalida “yaxshilig” radifi takrorlanib, yaxshilikni ulug‘lash ta’kidlanib boradi.

Ul ahd ila paymon qani, ey yor, ne bo ‘ldi?

Ul lutfila ehson qani, ey yor, ne bo ‘ldi?

Kettim meni hayron eshicingdin demading hech,

Ul telbayi hayron qani, ey yor, ne bo ‘ldi?

Ushbu g‘azalda ham radif bir necha so‘zdan tashkil topgan va ritorik so‘roq gapda murojaat ma’nosini ifodalagan. Oshiqning mashuqasidan o‘pkalanishi, va’dasiga vafo qilmagan yordan yozg‘irishi, shikoyatlari radif orqali ochib berilgan.

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkildur,

Sening birla chiqishmoqliq dog‘i bisyor, mushkildur

Mizojing noziku sen tund, men bir beadab telba,

Sanga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkildur.

Ushbu g‘azalda ham radif orqali asosiy ma’noni ilg‘ash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki oshiqning mashuqasiga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklari, azob uqubat chekishi, “mushkul” ekanligi ta’kidlangan.

Turkiy adabiyotda g‘azalning shunday turi ham borki, unda qofiya ishtirok etmaydi. Bunday g‘azallarda butun she’r “yuki” radifga tushadi.

Ohangdorlik radif oqali ifodalanadi. Bu kabi g‘azallar adabiyotshunoslikda harora g‘azallar nomi bilan yuritiladi. Jahon Otin Uvaysiy ijodida harora g‘azal namunalari uchraydi.

O‘rganishlarimiz asnosida ma’lum bo‘ldiki, Bobur ijodidagi g‘azallar qofiya asosiga qurilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. –T.: O‘qituvchi, 2017.
2. Bobur Zahiriddin. Devon. – T.: Sharq, 1996.
3. Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018.
6. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T: Ta‘lim-mediya, 2019.